



PROFESSIONAL TA'LIMDA MUTAXASISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING MAZMUNI

Muqimov Ma'ruf Olimovich

O'zbekiston. Jizzax DPI,

Sport turlarini o'qitish metodikasi kafedrasida o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6338645>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi:17-fevral 2022

Ma'qullandi:22-fevral 2022

Chop etildi:27-fevral 2022

KALIT SO'ZLAR

duol ta'lim, professional ta'lim, innovatsion texnologiya, nazariy va amaliyotning birligi, yangicha yondashuv, ta'lim sohasi, ta'lim tizimi.

ANNOTATSIYA

Har bir xalq, har bir millatning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog'liqdir. Professional ta'lim mutaxasislarni tayyorlashning asosi. Ushbu maqolada professional ta'limda mutaxasislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning mazmuni haqida so'z borgan.

KIRISH

Barchamizga ma'lumki, har bir xalq, har bir millatning ertangi kuni bugun voyaga yetayotgan avlod taqdiri bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan aytganda, mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida ta'lim tizimini rivojlantirishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib ulg'ayishini ta'minlash, qobiliyat hamda iqtidorini, intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish borasida keng ko'lamlil ishlar amalga oshirildi. Jamiyatning taraqqiy etishi ta'lim tizimining yangicha yondashuv asosida tashkil etishi va mutaxasislarning kasbiy kompetensiyasiga

bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasining idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yangi tizimini joriy etish ushbu sohaning rivojlantirishga qaratilgan muhim e'tibor desak mubolag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bugungi kunda ta'lim sohasida olib borilayotgan keng ko'lamlil islohotlar barcha ta'lim muassasalarining yangicha zamonaviy qiyofasini ko'zlamoqda desak mubolag'a



bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2019 yil 6 sentyabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinganligi fikrimizning yaqqol dalilidir. Ushbu Farmon O'zbekiston tarixida **yangi professional ta'lim tizimini** tashkil etishga asos bo'ladi. Ushbu farmon yuzasidan 2020 yil 24 yanvarda davlatimiz rahbari o'z Murojaatnomasida **"Joriy o'quv yilidan boshlab, mutlaqo yangi professional ta'lim tizimi yo'lga qo'yilib, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar tashkil etiladi"** deb mazkur tizimning ahamiyatini yana bir bor alohida ta'kidlaganlari barcha **kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarning yangi zamonaviy qiyofada faoliyat yuritishlariga turtki bo'ldi.**

NATIJALAR

Xozirgi kunda kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarning moddiy texnik bazasi mustaxkamlanib, ta'lim sifati yuqori bosqichga ko'tarilib borilayotgan bir vaqtda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash tizimi ham yo'lga qo'yildi. Professional ta'lim tizimining asosiy talabi- ta'limning sifatiga qaratilgan bo'lib, ta'lim muassasalarida yangi standartlar asosida o'qitish, yangicha o'qitish metodologiyasi, yangi darslik va adabiyotlar, pedagoglarning zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalaridan doimiy foydalanishlari va baholash tizimini joriy etishlari, shuningdek

ta'lim tarbiyaga yangicha yondashuvdan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

MUHOKAMA

Innovatsion ta'lim texnologiyasi - bu o'quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta'lim va ta'lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangi yoki sifat jihatidan yaxshilashni o'z ichiga olgan o'quv va ta'lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasi. jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi tendentsiyalari. Ta'limdagi innovatsiyalar ta'lim sohasidagi innovatsiyalarning paydo bo'lishiga qaratilgan kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu innovatsiyalar ta'lim jarayonini tashkil etishning usul va uslublari, ta'lim va tarbiya jarayonida foydalaniladigan resurslar, ilmiy nazariyalar va tushunchalar bo'lishi mumkin. Innovatsiya yangi ilmiy bilimlarni, qandaydir kashfiyotlarni, ixtirolarni olishga qaratilgan tadqiqot faoliyatidan foydalanish orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, innovatsiyalarning paydo bo'lishi loyihalash ishlarining natijasi bo'lishi mumkin, bunda mavjud ilmiy nazariyalar va tushunchalar asosida amaliy harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini aks ettiruvchi instrumental va texnologik bilimlar rivojlanadi. Shunday qilib, innovatsion loyihalar yaratiladi, bu esa keyinchalik yangi texnologiyalarning paydo bo'lishiga olib keladi. Ta'lim tizimida innovatsion ta'lim texnologiyalari uchta asosiy komponentga asoslanadi. Bular quyidagilar:



kasbiy faoliyatdagi kompetentsiya

Zamonaviy, innovatsion o'qitish usullarini qo'llash

Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi

1. Zamonaviy, yaxshi tuzilgan tarkib, uning asosi tadbirkorlik faoliyatining hozirgi voqeliklariga javob beradigan kasbiy faoliyatdagi kompetentsiyadir. Buning mazmuni zamonaviy aloqa vositalari orqali uzatiladigan turli multimedia materiallarini o'z ichiga oladi.

2. Zamonaviy, innovatsion o'qitish usullarini qo'llash. Bunday usullar bo'lajak mutaxassisning kompetensiyalarini rivojlantirishga, o'quvchilarni faol bilim va amaliy faoliyatga jalb etishga, bilish jarayonida tashabbuskorlikni namoyon etishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ta'lim dasturlarini passiv assimilyatsiya qilish istisno qilinadi.

3. Ta'lim jarayonida zamonaviy infratuzilmaning mavjudligi. U o'qitishning yangi shakl va usullarini, xususan, masofaviy ta'limni qo'llashga yordam beradigan axborot, texnologik, tashkiliy va kommunikatsiya komponentlariga asoslanishi kerak.

Professional ta'lim tizimining asosiy talabi ta'limning sifatiga qaratiladi. Buning uchun ta'lim muassasalarida yangi standartlar, yangicha o'qitish metodologiyasi, yangi darslik va adabiyotlar, pedagoglarning zamonaviy

innovatsion ta'lim texnologiyalaridan doimiy foydalanishlari va baholash tizimini joriy etishlari rejalashtirilgan. Professional ta'lim tizimi tabaqalashtirilgan ta'lim dasturlari bo'yicha kadrlarni tayyorlaydi. Ishchi kasblar bilan o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash tizimi bir-biridan to'liq ajratilib, ishchi kasblar alohida o'quv rejasi va dasturlar asosida 6 oydan 1 yilgacha bo'lgan muddatda o'qitiladi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim jarayonida ish faoliyatini boshlagan yosh o'qituvchilar faoliyatida yuzaga keladigan qiyinchiliklar eng avvalo, ularning kasbiy rivojlanishi bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishi, kasbiy faoliyat bilan bog'liq muammoli vaziyatlarni hal etishga bog'liq. Ularni psixologik qo'llab-quvvatlash, o'z-o'ziga ishonch, mas'uliyatni qaror toptirish, shuningdek, o'zgaruvchan vaziyatlarda muvafaqqiyatli harakatlana olish strategiyalarini ishlab chiqishda nazariya va amaliyotning birligi asosida tashkil etish, shuningdek professional ta'lim tizimiga asoslangan ta'lim tizimini joriy etishni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.M.Egamberdieva, A.U. Axmadaliev, A.B.To'raev . Pedagogikaning taraqqiyot tendensiyalari va innovatsiyalari moduli T.: Iste'dod, 2016. – 279 b



2. Ishmuxamedov R., Abdukodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta'lim muassasalari tarbiyachi-ukituvchilari va gurux rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) - T.: Iste'dod, 2010. - 1416.

QAROR VA FARMONLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrda "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. Ma'rifat gazetasi 18.09.2019

Internet manbalari.

1. www.google.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.arxiv.uz